


106. Sonni 6 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
ish va mehnat.

Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



Bu yerda nechta kvadrat bor?



1. 6 nafar usta 42 ta uskunani yig'ishi kerak. Agar ular bu ishni baravardan bo'lib olsalar, har bir usta nechta uskunani yig'ishi kerak bo'ladi?

2. 6 ga ko'paytirish jadvalidan foydalanib hisoblang.

$$36 : 6$$

$$42 : 6$$

$$48 : 6$$

$$60 : 6$$



$$54 : 6$$

$$12 : 6$$

3. Bir kunda usta 24 ta o'yinchoqni, shogirdi esa 4 marta kam o'yinchoqni yig'a oladi. Usta va uning uchta shogirdi bir kunda nechta o'yinchoqni yig'a oladi?

4. Usta simdan teng tomonli oltiburchakni bukishi kerak. Agar simning uzunligi 48 cm bo'lsa, oltiburchakning har bir tomoni qanchaga teng bo'ladi?

5. Teng tomonli romb va strelka yasash uchun qancha sim kerak bo'lishini aniqlang.





6. Noma'lumlarning qiymatini toping.

$$6 \cdot x = 42$$

$$y \cdot 6 = 24$$

$$36 : z = 6$$

$$54 : t = 9$$

$$p : 3 = 6$$

$$k : 6 = 8$$



7. Bog'bon bog'ga uchta nav olma ko'chati o'tqazdi. Diagrammani o'rganing va savollarga javob bering:

- Qaysi olma hammasidan oldin hosil bera boshladi?
- Qaysi olma so'nggi yilda hammasidan ko'p hosil berdi?
- Qaysi olma barcha yillarda hammasidan ko'p hosil berdi?



8. Amallarni bajaring:

$$(54 : 9) + 18$$

$$(85 - 25) : 10$$

$$(21 : 7) + (12 : 4)$$

$$43 + (18 : 6)$$

$$(34 + 8) : 7$$

$$(30 : 5) : 2$$



9. Sport musobaqasida bir nafar yuqori sinf o'quvchisi uch nafar quyi sinf o'quvchisi bilan arqon tortishishi mumkin. 6 nafar yuqori sinf o'quvchisiga qarshi necha nafar quyi sinf o'quvchisini qo'yish mumkin?